TA'LIMDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK INNOVATSIYALAR VA KASBIY MAHORAT MASALASINI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.

Salomova Nargiza Sattorovna
Buxoro davlar pedagogika instituti Psixologiya kaferdrasi o'qituvchisi Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24290399

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasbiy mahorat masalasini tadqiq etishning zamonaviy yondashuvlari o'rganilgan. Bundan tashqari, ta'limda pedagogik-psixologik innovatsiyalarni yoritib berilgan. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy mahoratini oshirishnng ijtimoiy psixologik xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. o'qituvchi, kasbiy mahorat, faoliyat, ta'lim, tarbiya, individuallik, boshlang'ich sinf, tafakkur, kasbiy mahorat, innovatsiya.

Respublikamizda so'nggi yillarda ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyoti uchun eng muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxs tarbiyasi va uni psixologik jihatdan to'g'ri yo'naltirish shu sohaga daxldor barcha sohalar tizimlariga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Bu masala, eng avvalo, kadrlar salohiyatiga jiddiy e'tibor qaratishni, o'sib kelayotgan yosh bunyodkor avlodning kasbiy tayyorgarligini va kasb ma'suliyat hissiga munosabat jarayonini jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy–iqtisodiy talablari asosida to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi. Qolaversa Respublikada izchillik bilan amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risidagi qonun[1]» ushbu masalaning o'ziga xos yechimlarini izlashda muhim o'rin tutmoqda. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Aynan ushbu shaxs sifatlarini rivojlantirish va to'g'ri yo'naltirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy sharoitlarda kasbiy o'zini-o'zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining xususiyatlari E.F.Zeer tomonidan o'rganilgan. U kasbiy sifatlarni kasbiy faoliyat tuzulmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi. Shuningdek, shaxsning yo'naltirilganligi, professional jihatdan muhim psixofiziologik xususiyatlarini ifodalaydi [45]. Ta'kid joizki, faoliyat jarayonida bajariladigan asosiy vazifalar qoidaga ko'ra qat'iy belgilangan bo'lib, uni amalga oshirmaslik jazo olish bilan yakunlanadi. Boshqa vazifalar esa, qattiq nazorat qilinmaydi, agar xodimlar uni bajarishda e'tiborsizlik qilsalar u uchun jazo berilmaydi. V.A.Metaevaning tasdiqlashicha, kasbiy faoliyatda o'z-o'zini anglash yoki kasbiy refleksiya mas'uliyatlilikning asosiy sharti sanalib, o'qituvchi shu jarayon orqali o'z sohalarining kelajakdagi istiqbollarini ko'ra boshlaydilar [81]. Ushbu mulohazaga ko'ra, shaxsning kasbiy tayyorgarligi, kasbiy bilimlarni egallash shart-sharoitlari javobgarlik hissini shakllantirishning muhim shartlaridan biridir.

Umuman olganda, insonning faoliyatga bo'lgan munosabati uning vazifalarni anglash darajasi va ularni amalga oshirish usullarini samarali o'zlashtirishiga bog'liq sanaladi. Ba'zi ilmiy manbalarda qayd

[1] https://lex.uz/docs/-5013007

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

etilishisha, kasbiy mahoratlilik o‘z mazmunida bir necha komponentlarni qamrab olib, ular orqali inson harakatlari tartiblanadi.

Yu.D.Mishina o‘zining «Talablarda mas’uliyat hissini rivojlantirishning psixologik omillari» mavzusidagi dissertatsiya ishida kasbiy mahorat fenomeniga tegishli quyidagi komponentlarni ajratib o‘tadi [82]:

– Kognitiv komponent – shaxsning sohaga oid ma’lumotlardan xabardorligi hamda kasbiy majburiyatlarni anglash darajasi kabilardan tashkil topgan;

– Affektiv komponent – shaxs kasbiy faoliyatiga berilgan ijobiy yoki salbiy baho bilan xarakterlanadi;

– Konativ komponent (amaliy tayyorgarlik) – bu shaxsning o‘z sohasiga bo‘lgan amaliy tayyorgarlik darajasi sanalib, u o‘z vaqtida o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar tizimi bilan tavsiflanadi. Mazkur jihat hammada har xil ko‘rinishda mavjud. Chunki, shaxslar bilim va ko‘nikmalarni egallashda o‘ziga xos tafovutga ega bo‘lishadilar.

Tadqiqotchi V.P.Pryadein o‘zining «Shaxsda mas’uliyat hissi namoyon bo‘lishining jins xususiyatlari» mavzusidagi asarida kasbiy mahorat va uning darajasi muammosiga alohida e’tibor qaratib, uni quyidagilar orqali tushuntirishga harakat qiladi [97]:

– Kasbiy mahorat mustaqil faoliyat mazmunida - inson dastlab nafaqat erkin, balki o‘z mavjudligi hamda boshqalarning borligi uchun ham javobgardir. Ya’ni, inson jamiyat, boshqa odamlar va o‘zi uchun mas’uldir. Mustaqillik va mas’uliyat har doim o‘z rejalarini amalga oshirish bilan bog‘liq tanlovni nazarda tutadi, biroq inson hayotda va kasbiy faoliyatda boshqa kishilarning ehtiyojlari va rejalarini hisobga olgan holda harakat qilishi, ish yuritishi, fikr yuritishi shuningdek, qarorlar qabul qilishi lozim;

– Kasbiy mahorat burch va vijdon tushunchasining yadrosi sifatida – bunda insonning jamiyat va boshqa insonlar oldidagi burchi hamda unda shakllangan vijdon hissi hisobga olinadi. Vijdon ijtimoiy moslashuv jarayonlari ta’siri ostida shakllanadi va oxir–oqibat u burchni amalga oshirish sifatida yakunlanadi;

– Kasbiy mahorat shaxsning o‘ziga xos xususiyati ya’ni muayyan shaxsning xususiyatlaridan biri sifatida. Kasbiy faoliyatda mas’uliyat hissi, shaxs xulq-atvorini tashqi va ichki tomondan tartibga solishda o‘ta muhim ahamiyatga ega. Har bir voyaga yetgan shaxsning javobgarlik sifatlari, unda rivojlangan o‘zini o‘zi boshqara olish ko‘nikmalari va malakalari bilan xarakterlanadi;

– Kasbiy mahorat kasbiy qadriyatlar bilan uyg‘un sanalib, u pedagogik faoliyatda o‘qituvshi shaxsiga xos qadriyatlar tizimi bilan takomillasha boradi. Va bu bo‘lajak o‘qituvshilarning kasbiy faoliyatiga ta’sir etuvchi o‘ziga xos omil ham sanaladi. Mazkur tasnifga ko‘ra, kasbiy mahorat axloqiy xarakterga ega bo‘lib, unda bo‘lajak pedagoglarga xos o‘z-o‘zini tartibga solish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, vijdonlilik hamda burchga sodiklik kabi psixologik jihatlar o‘rin olgan.

Respublikamizda so’nggi yillarda ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyoti uchun eng muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxs tarbiyasi va uni psixologik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish shu sohaga daxldor barcha sohalar tizimlariga yanada ko‘proq mas’uliyat yuklaydi. Bu masala, eng avvalo, kadrlar salohiyatiga jiddiy e’tibor qaratishni, o‘sib kelayotgan yosh bunyodkor avlodning kasbiy tayyorgarligini va kasb ma’suliyat hissiga munosabat jarayonini jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy–iqtisodiy talablari asosida to‘g‘ri tashkil etishni taqozo etadi. Qolaversa Respublikada izchillik bilan amalga oshirilayotgan «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun[2]»

[2] https://lex.uz/docs/-5013007

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ushbu masalaning o‘ziga xos yechimlarini izlashda muhim o‘rin tutmoqda. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Aynan ushbu shaxs sifatlarini rivojlantirish va to‘g‘ri yo‘naltirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

Muvaffaqiyatga intilish fazilati – mazkur fazilatsiz bugungi kun yoshlarini tasavvur etib bo‘lmaydi. Ya’ni o‘quv faoliyatidagi asosiy ehtiyojlardan biri bu insonning yutuqlarga bo‘lgan intilishida yoki o‘zo‘zini anglashi, maqsadga erishish kabi ehtiyojlarida namoyon bo‘ladi. Ta’lim muassasalari bo‘lajak mutaxassislariga faqat Kasbiy bilim va malakalarni beribgina qolmay, u quyidagi funksiyalarga ham tayyorlashi zarur hisoblanadi:

1. Ijtimoiy funksiya – jamiyatning haqiqiy a’zosi sifatida ijtimoiy-Kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradigan qadriyatlar, ijtimoiy-normalar va bilimlarning ma’lum tizimini o‘rganish imkoniyatini yaratish;
2. Iqtisodiy funksiya – ta’lim darajashini sifat jihatdan rivojlantirish, kasbiy ma’suliyatni yukcaltirish uni tarkibini ishlab chiqish jarayoni bilan belgilash;
3. Psixologik funksiya – ma’lum kasbni tanlagan shaxsning individual-tipologik sifatlarini diagnoz qilish, shakllantirish va e’tiborga olish;
4. Fiziologik funksiya – shaxs salomatligi uning fiziologik xususiyatlarga nisbatan funksiyani bajarishda kerak bo‘ladigan talablarni inobatga olishdir.

Xulosa

Shuningdek, kasbiy mahorat masalasini tadqiq etishning zamonaviy yondashuvlarikasbiy mahoratni rivojlantirishda ularning ichki murakkab individual-psixologik tuzilishiga ega bo‘lgan, kognitiv, axloqiy, irodaviy, regulyativ va motivatsion omillarini rivojlantirish kerakligi ta’kidlab o’tilgan. Shuningdek, boshlang’ich sinf o’qituvchilarida kasbiy mahoratni rivojlantirishda ularning ichki murakkab individual-psixologik tuzilishiga ega bo‘lgan, kognitiv, axloqiy, irodaviy, regulyativ va motivatsion omillarini rivojlantirish kerakligi ta’kidlab o’tilgan.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 2020 yil 23 sentyabr: https://lex.uz/docs/5013007
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063
3. Boshlang’ich sinf o’qituvchilari kasbiy maxoratini oshirishning ijtimoiy- psixologik xususiyatlari. Ta’limda istiqbolli izlanishlar xalqaro ilmiy – metodik jurnal № 5 2024 Iyul. 46-49
4. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axbarotnomasi ilmiy amaliy jurnal № 7 (11) 2024 300-304
5. Ta’limda istiqbolli izlanishlar xalqaro ilmiy – metodik jurna l № 4 2024 Iyun. 34-37 .
6. Psixologik tadqiqotlarda muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar respublika ilmiy amaliy anjuman 2024-yil 22-noyabr 359-362
7. Zamonaviy psixologik tadqiqodlar tendensiyalari xalqaro ilmiy amaliy anjumani to’plami 2024-yil, 20 –aprel 359-362 .

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.